YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o‘g‘li, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig‘i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra’no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

O‘ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO‘RSATKICHLARI 18
Nazarov G‘ayrat Xayrullayevich
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI 22
Ne’matov Husniddin Alijon o‘g‘li
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO‘LLASH YO‘NALISHLARI 27
Otamurodova Dildora Abdukrimovna
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI 32
Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ 37
Пулатова Мадина Бейсеновна
Табаев Азамат Зарипбаевич
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI 42
Palvanov Xusniddin Bekimmatovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI



Palvanov Xusniddin Bekimmatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti “Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar” kafedrasi assistenti
Tel.: +998973544944
ORCID: 0009-0009-9611-1891
E-mail: palvanovxusniddin@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada moliyaviy majburiyatlarning konseptual asoslari ikki o‘lchovli — majburiyat (huquqiy-iqtisodiy yuk) va majburiy risk (subyekt zimmasiga shartnomaviy yuklatilgan noaniqlik) — nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS/IFRS) Konseptual asosidagi majburiyat ta’rifi, IAS 32, IFRS 9 va IAS 37 standartlari hamda korporativ moliya nazariyasining (Modigliani-Miller, Jensen-Meckling) yondashuvlari qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy majburiyat nafaqat majburiyat, nafaqat risk emas, balki ularning dialektik birligidir: majburiyat mezoni uning mavjudligi va tan olinishini, ya’ni balans va kapital chegarasini belgilasa, risk o‘lchovi uning iqtisodiy mazmuni va o‘lchamini belgilaydi. Maqolada O‘zbekistonning MHXSga o‘tishi sharoitida ushbu konseptual ikkilanishning amaliy oqibatlari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy majburiyat, konseptual asos, MHXS/IFRS, risk, noaniqlik, kapital, mazmunning shakldan ustunligi, IAS 32, IFRS 9.

Abstract. The article analyzes the conceptual foundations of financial liabilities from a two-dimensional perspective: obligation, understood as a legal and economic burden, and obligatory risk, understood as uncertainty contractually imposed on an entity. The study comparatively examines the definition of liability in the Conceptual Framework for Financial Reporting under International Financial Reporting Standards (IFRS), IAS 32, IFRS 9 and IAS 37, as well as the approaches of corporate finance theory, including Modigliani–Miller and Jensen–Meckling. The study shows that a financial liability is neither only an obligation nor only a risk, but rather a dialectical unity of the two: the obligation criterion determines its existence and recognition, that is, the boundary between liabilities and equity, while the risk dimension determines its economic substance and measurement. The article also considers the practical implications of this conceptual duality in the context of Uzbekistan’s transition to IFRS.

Keywords: financial liability, conceptual framework, IFRS, risk, uncertainty, equity, substance over form, IAS 32, IFRS 9.

Аннотация. В статье анализируются концептуальные основы финансовых обязательств с двухмерной точки зрения: обязательства, понимаемого как правовая и экономическая нагрузка, и обязательного риска, понимаемого как неопределённость, договорно возложенная на субъект. В исследовании на основе сравнительно-аналитического метода рассматриваются определение обязательства в Концептуальной основе финансовой отчётности Международных стандартов финансовой отчётности (МСФО/IFRS), стандарты IAS 32, IFRS 9 и IAS 37, а также подходы теории корпоративных финансов, включая концепции Модильяни — Миллера и Дженсена — Меклинга. Результаты исследования показывают, что финансовое обязательство является не только обязательством и не только риском, а их диалектическим единством: критерий обязательства определяет его существование и признание, то есть границу между обязательствами и капиталом, тогда как риск определяет его экономическое содержание и оценку. В статье также рассмотрены практические последствия данной концептуальной двойственности в условиях перехода Узбекистана на МСФО.

Ключевые слова: финансовое обязательство, концептуальная основа, МСФО/IFRS, риск, неопределённость, капитал, преобладание содержания над формой, IAS 32, IFRS 9.

KIRISH

Moliyaviy hisobotning markaziy elementlaridan biri bo‘lgan majburiyat tushunchasi uzoq vaqt davomida nisbatan barqaror va “oddiy” kategoriya sifatida qabul qilinib kelgan: majburiyat — bu subyektning kelajakda iqtisodiy resursni uzatish bo‘yicha o‘tmishdagi hodisalardan kelib chiqqan joriy burchidir. Biroq XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida moliyaviy bozorlarning murakkablashuvi, hosilaviy moliyaviy instrumentlar (derivativlar), gibrid qimmatli qog‘ozlar, shartli (kontingent) majburiyatlar va moliyaviy kafolatlarning keng tarqalishi bu soddalikni shubha ostiga qo‘ydi. Bugun ko‘plab moliyaviy majburiyatlar uchun “qancha to‘lanadi?” va “qachon to‘lanadi?” degan savollarga oldindan aniq javob berib bo‘lmaydi. Bunday holatda majburiyatning o‘zi mohiyatan noaniqlik, ya’ni riskni o‘zida mujassam etadi.

Aynan shu yerda maqola sarlavhasidagi konseptual ziddiyat yuzaga keladi: moliyaviy majburiyat — bu majburiyatmi (subyekt aniq miqdordagi resursni uzatishi shart bo‘lgan burch) yoki majburiy riskmi (subyekt shartnoma bo‘yicha o‘z zimmasiga olishga majbur bo‘lgan, miqdori va muddati noaniq bo‘lgan ehtimoliy yuk)? Bu shunchaki terminologik bahs emas. Javob moliyaviy majburiyatning balansda tan olinishi, kapital bilan o‘rtasidagi chegara, o‘lchash usuli (amortizatsiyalangan qiymat yoki haqqoniy qiymat) va investorlarga taqdim etiladigan axborotning mazmuni kabi amaliy masalalarni belgilab beradi.

Tadqiqotning dolzarbligi ikki jihat bilan izohlanadi. Birinchidan, MHXS Kengashi (IASB) 2018-yilda yangilangan Konseptual asosni qabul qildi va unda majburiyat ta’rifi qayta ko‘rib chiqildi, biroq noaniqlik va riskni hisobga olish masalasi to‘liq hal etilmagan deb baholanmoqda [5]. Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qaroriga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari va yirik soliq to‘lovchilar MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlashga o‘tdilar [9]. Bu esa “majburiyat”ning huquqiy-shakliy talqiniga asoslangan milliy an’anadan iqtisodiy mazmun va riskka asoslangan xalqaro yondashuvga o‘tishni taqozo etadi.

Tadqiqot maqsadi — moliyaviy majburiyatning konseptual tabiatini “majburiyat” va “risk” o‘lchovlari kesimida tahlil qilish hamda ularning zamonaviy talqinlardagi o‘zaro nisbatini aniqlashdir. Bundan kelib chiqib, quyidagi tadqiqot savollari qo‘yiladi: (1) majburiyat tushunchasining konseptual yadrosi nima — burchmi yoki noaniqlikmi? (2) risk o‘lchovi majburiyatning ta’rifiga kiradimi yoki faqat uning o‘lchami va oqibatigami? (3) bu konseptual tushuncha O‘zbekiston amaliyoti uchun qanday ma’no kasb etadi?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo‘lib, empirik ma’lumotlarni statistik qayta ishlashga emas, balki normativ hujjatlar va ilmiy adabiyotning sifatli (kvalitativ) tahliliga asoslanadi. Tadqiqotning axborot bazasini quyidagi manbalar tashkil etdi: MHXS Kengashining Moliyaviy hisobot uchun Konseptual asosi (IASB, 2018) [1]; “Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish” (IAS 32) [2], “Moliyaviy instrumentlar” (IFRS 9) [3] hamda “Baholama majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” (IAS 37) [4] standartlari; korporativ moliya va buxgalteriya nazariyasiga oid xalqaro retsenziyalangan ilmiy maqolalar [5–8]; shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining tegishli normativ-huquqiy hujjatlari [9–11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi. Qiyosiy-tahliliy usul yordamida majburiyatning huquqiy (yuridik majburiyat), iqtisodiy (mazmunan majburiyat) va riskka asoslangan talqinlari solishtirildi. Mazmunli (kontent) tahlil orqali standartlardagi ta’riflarning sintaktik tuzilishi va undagi mezonlar (burchning mavjudligi, resursni uzatish, o‘tmishdagi hodisa) ajratib chiqarildi. Tarixiy-mantiqiy usul majburiyat konsepsiyasining buxgalteriya nazariyasidagi (masalan, FASB Konseptual bayonotlaridan IASBning 2018-yilgi asosigacha) evolyutsiyasini kuzatishda foydalanildi [7]. Nihoyat, induktiv-deduktiv mantiq asosida ayrim instrumentlar (obligatsiyalar, qaytarib sotib olinadigan imtiyozli aksiyalar, yozma optsionlar, moliyaviy kafolatlar) misolida umumiy konseptual xulosalar shakllantirildi.

Metodologik cheklovni alohida ta’kidlash lozim: maqola me’yoriy-konseptual tahlilga qaratilgani bois, undagi xulosalar empirik gipotezalarni statistik tekshirish emas, balki nazariy umumlashtirish va talqin darajasidadir. Bu MHXS Kengashi va ilmiy hamjamiyat ishlatadigan konseptual tahlil an’anasiga mos keladi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Majburiyatning konseptual yadrosi: burch sifatidagi ta’rif

IASBning 2018-yilgi Konseptual asosida majburiyat subyektning o‘tmishdagi hodisalar natijasida vujudga kelgan, iqtisodiy resursni uzatish bo‘yicha joriy burchi sifatida ta’riflanadi [1]. Ushbu ta’rif uch elementga tayanadi: (a) subyektda burch mavjud bo‘lishi; (b) bu burch iqtisodiy resursni uzatishga qaratilgan bo‘lishi; (c)

burch o‘tmishdagi hodisalar natijasida yuzaga kelgan joriy burch bo‘lishi. Muhim jihat shundaki, burch yuridik (shartnoma yoki qonun asosida) bo‘lishi shart emas — u konstruktiv, ya’ni subyektning amaliy yo‘l-yo‘riqlari va kutilmalaridan kelib chiqadigan majburiyat ham bo‘lishi mumkin. Demak, allaqachon klassik talqinning o‘zida majburiyat tor huquqiy burchdan kengroq, iqtisodiy mazmunga ega kategoriya sifatida tushuniladi.

Moliyaviy majburiyatning maxsus ta’rifi IAS 32da beriladi: u boshqa subyektga pul mablag‘i yoki boshqa moliyaviy aktivni uzatish bo‘yicha shartnomaviy majburiyat, yoxud subyekt uchun nomaqbul bo‘lishi mumkin bo‘lgan shartlarda moliyaviy aktiv/majburiyatlarni almashtirish majburiyatidir [2]. Bu yerda hal qiluvchi mezon — shartnomaviy majburiyatning qochib bo‘lmasligi. Aynan shu mezon moliyaviy majburiyat bilan kapital o‘rtasidagi chegarani belgilaydi.

Majburiyat va kapital chegarasi: “majburiyat” mezonining hal qiluvchi roli

Moliyaviy instrumentni majburiyat yoki kapital deb tasniflash masalasida “majburiyat” o‘lchovi birlamchi ahamiyat kasb etadi. IAS 32 mazmunning shakldan ustunligi tamoyiliga asoslanadi: instrument “aksiya” deb atalishi uning kapital ekanini anglatmaydi [2]. Masalan, emitent tomonidan belgilangan muddatda majburiy ravishda qaytarib sotib olinishi (redemption) shart bo‘lgan imtiyozli aksiyalar, mohiyatan, moliyaviy majburiyat hisoblanadi, chunki subyekt pul uzatishdan qocha olmaydi. Aksincha, oddiy aksiya — bu qoldiq ulush (residual claim) bo‘lib, subyektda dividend to‘lash bo‘yicha qochib bo‘lmas burch yo‘q, shu sababli u kapitalga kiradi.

Bu yerdan muhim konseptual qoida kelib chiqadi: kapital — bu subyektning qoldiq riskini ko‘taruvchilarning ulushi, majburiyat esa subyekt qochib bo‘lmas tarzda zimmasiga olgan shartnomaviy burch. Demak, “majburiyat” mezoni instrumentning tan olinishi va joylashtirilishi (balansning qaysi tomonida turishi) masalasida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu o‘rinda sof “risk” o‘lchovi yetarli emas: ham kreditor, ham aksiyador risk ko‘taradi, biroq ularni ajratib turadigan narsa — qochib bo‘lmas burchning mavjud yoki yo‘qligidir.

Risk o‘lchovi: majburiyatning iqtisodiy mazmuni va o‘lchami

Biroq majburiyatning faqat “burch” sifatidagi talqini uning iqtisodiy mazmunini to‘liq qamrab olmaydi. Moliyaviy majburiyat subyektni bir necha turdagi riskka duchor qiladi: likvidlik riski (to‘lov muddatida pul mablag‘ining yetarli bo‘lmasligi), bozor riski (foiz stavkasi yoki valyuta kursining noqulay o‘zgarishi), kredit riski. Eng muhimi — ko‘pgina zamonaviy moliyaviy majburiyatlarda burchning miqdori va muddatining o‘zi noaniq. Yozma optsion, foiz svopi yoki moliyaviy kafolat misolida majburiyatning kelajakdagi qiymati to‘liq ehtimoliy taqsimotga bog‘liq. Bunday hollarda majburiyat — bu aniq summa emas, balki subyekt shartnoma bo‘yicha o‘z zimmasiga olishga majbur bo‘lgan risk pozitsiyasidir. Maqola sarlavhasidagi “majburiy risk” iborasi aynan shu holatni ifodalaydi.

Korporativ moliya nazariyasi bu talqinni mustahkamlaydi. Modigliani va Miller [6] qarz mablag‘i (leverage) firmaning moliyaviy riskini aksiyadorlarga ko‘chirishini ko‘rsatgan: majburiyat hajmi oshgani sayin kapitalga tegishli risk ham ortadi. Jensen va Meckling [7] esa qarzning agentlik xarajatlari va “riskni ko‘chirish” (risk-shifting) rag‘batlarini keltirib chiqarishini asoslab berdi — ya’ni majburiyat shunchaki burch emas, balki manfaatlar va riskni taqsimlovchi institut sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, iqtisodiy nuqtai nazardan moliyaviy majburiyat — bu risk uzatish va taqsimlash mexanizmidir.

Tan olish chegarasi: aniq majburiyatdan riskgacha bo‘lgan uzluksizlik

IAS 37 majburiyat va riskning uzviy bog‘liqligini eng aniq ko‘rsatuvchi standartdir [4]. Unga ko‘ra, baholama majburiyat (provision) faqat uchta shart bajarilgandagina tan olinadi: joriy burch mavjudligi, resurs chiqishi ehtimolligi va summani ishonchli baholash imkoniyati. Bu shartlar bajarilmasa, instrument shartli majburiyat (contingent liability) sifatida faqat izohlarda yoritiladi, balansda tan olinmaydi. Shu tariqa, “aniq majburiyat → baholama majburiyat → shartli majburiyat → shunchaki risk” shaklidagi uzluksiz spektr yuzaga keladi. Majburiyat va risk o‘rtasidagi chegara — bu mutlaq emas, balki tan olish ostonasi (recognition threshold) bilan belgilanadigan nisbiy chegaradir. Bu xulosa “majburiyatmi yoki risk?” degan savolning ikkita o‘zaro inkor etuvchi javobni emas, balki bir o‘qning ikki uchini taqdim etishini ko‘rsatadi.

O‘lchash: riskning son ifodasi

IFRS 9ga muvofiq moliyaviy majburiyatlar yo amortizatsiyalangan qiymatda, yo foyda yoki zarar orqali haqqoniy qiymatda (FVTPL) o‘lchanadi [3]. Haqqoniy qiymatda o‘lchash, mohiyatan, majburiyatning risk mazmunini son ko‘rinishida hisobotga kiritishdir. Bu o‘rinda mashhur “o‘z kredit riski paradoksi” yuzaga keladi: subyekt kredit reytingi yomonlashganda uning majburiyatining haqqoniy qiymati pasayadi va formal hisobda “foyda” paydo bo‘lishi mumkin. Shu sababli IFRS 9 o‘z kredit riskidan kelib chiqqan o‘zgarishlarni boshqa yalpi daromad (OCI) orqali aks ettirishni talab qiladi [3]. Bu yondashuv majburiyat o‘lchami uning risk profili bilan chambarchas bog‘liqligini bevosita tasdiqlaydi.

Yuqoridagi natijalar “majburiyatmi yoki majburiy risk?” degan dixotomik savolning o‘zi noto‘g‘ri qo‘yilganini ko‘rsatadi. Moliyaviy majburiyat — bu majburiyat ham, risk ham bo‘lib, ular bir hodisaning ikki o‘lchovidir. Majburiyat o‘lchovi mavjudlik va tasnif savoliga (instrument balansda tan olinadimi, majburiyatmi yoki kapitalmi?) javob bersa, risk o‘lchovi o‘lcham va oqibat savoliga (qancha, qachon, qanday noaniqlik bilan?) javob beradi. Birinchisisiz balansning intizomli tuzilishi yo‘qoladi — ixtiyoriy risk ham majburiyat deb tan olinib, kapital (qoldiq risk ko‘taruvchi) bilan majburiyat (shartnomaviy burch) chegarasi yemiriladi. Ikkinchisisiz esa balans subyektning haqiqiy iqtisodiy mavqeini va noaniqlikka duchorligini yashiradi.

Barker va Penmanning tadqiqoti [5] bu sintezni kuchaytiradi. Mualliflar IASB Konseptual asosidagi “balans yondashuvi” zarur, biroq yetarli emasligini ta’kidlaydi: noaniqlik (risk) buxgalteriya hisobining markaziy mavzusi bo‘lishi kerak, chunki investorlar aynan kelajakdagi pul oqimlarining miqdori, vaqti va noaniqligi haqida axborot izlaydi [5]. Shuningdek, ular MHXSda aktiv va majburiyatlarni tan olishda assimetrik ostona qo‘llanishini — majburiyatlarga aktivlarga nisbatan pastroq noaniqlik ostonasi belgilanishini, ya’ni ehtiyotkorlik tamoyilini ko‘rsatib o‘tadi [5, 8]. Bu assimetriya majburiyatning sof “burch”dan ko‘ra ko‘proq “noaniqlik yuki” ekanini bevosita aks ettiradi: subyekt ehtimoliy yo‘qotishlarni ehtimoliy daromadlardan ertaroq tan olishga “majbur”.

Konseptual jihatdan, tarixiy evolyutsiya ham shu yo‘nalishda kechgan. Dastlabki buxgalteriya nazariyalari (masalan, FASB Konseptual bayonoti №6) majburiyatni asosan kelajakdagi resurs qurbonligi sifatida talqin qilgan bo‘lsa, zamonaviy MHXS yondashuvi mazmunning shakldan ustunligi, haqqoniy qiymat va riskni hisobga olishga ko‘proq urg‘u beradi [1, 3]. Bu shuni anglatadiki, majburiyat tushunchasi statik huquqiy kategoriyadan dinamik, iqtisodiy-riskka asoslangan kategoriyaga aylanib bormoqda.

Ushbu konseptual xulosalar O‘zbekiston uchun bevosita amaliy ahamiyatga ega. Milliy buxgalteriya hisobi standartlari (NSBU) an’anaviy ravishda majburiyatni huquqiy-shakliy nuqtai nazardan — asosan rasmiy shartnomaviy burch sifatida talqin qilishga moyil edi. MHXSga o‘tish [9, 10] esa subyektlardan uchta yangi konseptual ko‘nikmani talab qiladi. Birinchidan, gibrid instrumentlarni to‘g‘ri tasniflash — masalan, qaytarib sotib olinadigan imtiyozli aksiyalar yoki konvertatsiyalanadigan obligatsiyalarni mazmunan majburiyat va kapital qismlariga ajratish. Ikkinchidan, shartli majburiyatlarni tan olish va yoritish — risk mavjud bo‘lsa-da, hali aniq burchga aylanmagan holatlarni IAS 37 talablariga muvofiq baholash. Uchinchidan, valyutaviy va foiz risklarini o‘lchash — chet el valyutasida ifodalangan majburiyatlar O‘zbekiston korxonalari uchun jiddiy bozor riski manbai bo‘lib, ularning haqqoniy qiymati va kurs farqlari hisobotda to‘g‘ri aks ettirilishi zarur. Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun [11] va MHXSning birgalikdagi qo‘llanilishi bu sohada nazariy tushunchaning amaliy malakaga aylanishini taqozo etadi.

Tadqiqotning nazariy hissasi moliyaviy majburiyatni ikki o‘lchovli (majburiyat-risk) konstruksiya sifatida tizimli ifodalashdadir. Bu yondashuv bahsdagi qarama-qarshilikni bartaraf etib, ikkala o‘lchovning o‘ziga xos funksional rolini ajratib beradi. Cheklov sifatida shuni qayd etish lozimki, maqola empirik tekshiruvga emas, balki konseptual tahlilga asoslangan; kelgusi tadqiqotlarda O‘zbekiston korxonalari hisobotlari misolida gibrid instrumentlarni tasniflash va o‘lchash amaliyotini empirik o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari moliyaviy majburiyatni faqat “majburiyat” yoki faqat “majburiy risk” deb talqin qilishning bir tomonlama ekanini ko‘rsatdi. Moliyaviy majburiyat — bu majburiyat va riskning dialektik birligi: majburiyat o‘lchovi uning mavjudligi, tan olinishi hamda majburiyat va kapital o‘rtasidagi chegarani belgilaydi (qochib bo‘lmas shartnomaviy burch mezoni), risk o‘lchovi esa uning iqtisodiy mazmunini, o‘lchamini va investorlar uchun axborot qiymatini ifodalaydi (miqdor va muddat noaniqligi). IAS 37dagi “aniq majburiyatdan shartli majburiyatgacha” bo‘lgan uzluksiz spektr bu ikki o‘lchovning o‘zaro inkor etuvchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi ekanini tasdiqlaydi.

Zamonaviy talqinlar, xususan, IFRS 9da haqqoniy qiymat va o‘z kredit riskini hisobga olish hamda Barker-Penmanning noaniqlikni markazga qo‘yuvchi yondashuvi, majburiyat konsepsiyasining statik huquqiy burchdan dinamik, riskka asoslangan kategoriyaga evolyutsiyasini namoyish etadi. O‘zbekistonning MHXSga o‘tishi sharoitida bu konseptual tushuncha amaliy zarurat darajasiga ko‘tariladi: majburiyatlarni to‘g‘ri tasniflash, baholash va yoritish bevosita moliyaviy hisobotning ishonchliligiga, demak, mamlakatga investitsiya jalb qilishga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli majburiyatni “shakliy burch” sifatida emas, balki “tan olingan iqtisodiy risk” sifatida tushunish — milliy hisob madaniyatining xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashuvidagi muhim qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. International Accounting Standards Board (IASB). Conceptual Framework for Financial Reporting. – London: IFRS Foundation, 2018. https://www.ifrs.org/projects/completed-projects/2018/conceptual-framework/
2. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 32 Financial Instruments: Presentation. – London: IFRS Foundation. https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-32-financial-instruments-presentation/
3. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 9 Financial Instruments. – London: IFRS Foundation. https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-9-financial-instruments/
4. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 37 Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets. – London: IFRS Foundation. –https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-37-provisions-contingent-liabilities-and-contingent-assets/
5. Barker R., Penman S. H. Moving the Conceptual Framework Forward: Accounting for Uncertainty // Contemporary Accounting Research. – 2020. – Vol. 37, № 1. – P. 322–357. DOI: 10.1111/1911-3846.12585.
6. Modigliani F., Miller M. H. The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment // The American Economic Review. – 1958. – Vol. 48, № 3. – P. 261–297.
7. Jensen M. C., Meckling W. H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. – 1976. – Vol. 3, № 4. – P. 305–360. DOI: 10.1016/0304-405X(76)90026-X.
8. Barker R., McGeachin A. An Analysis of Concepts and Evidence on the Question of Whether IFRS Should Be Conservative // Abacus. – 2015. – Vol. 51, № 2. – P. 169–207. DOI: 10.1111/abac.12049.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son qarori. https://lex.uz/docs/-4746047
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-5841063
11. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘RQ-404-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-2931253
12. Penman S. H. Financial Statement Analysis and Security Valuation. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2013. – 740 p. ISBN: 978-0-07-802531-0.
13. Schmidt M. Equity and Liabilities – A Discussion of IAS 32 and a Critique of the Classification // Accounting in Europe. – 2013. – Vol. 10, № 2. – P. 201–222. DOI: 10.1080/17449480.2013.834727.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz